



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 7 (1606), 2026-yil 13-yanvar, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



NEFT-GAZ SOHASINI TRANSFORMATSIYA QILISH BO‘YICHA YANGI LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev

12-yanvar kuni “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining kelgusidagi vazifalari va rejaları yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Energetik xavfsizlikni ta‘minlash va iqtisodiyot tarmoqlariga energiya resurslarini uzluksiz yetkazib berish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, gaz sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Taqdimotda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati oldida turgan eng asosiy vazifa tabiiy gaz zaxiralarini oshirish va qazib chiqarish hajmlarini ko‘paytirish ekani qayd etildi. Kompaniya kunlik gaz qazib chiqarish hajmini 66 million kub metrdan 70 million kub metr ga ko‘paytirish, bu yil kamida 25,4 milliard kub metr gaz qazib chiqarish choralari ni ko‘rish zarurligi ta’kidlandi.

Mavjud imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Gaz zaxiralarini o‘stirish uchun yangi istiqbolli investitsiya bloklarini shakllantirish, investorlarga berilgan ayrim maydonlarda esa ishlarni jadallashtirish va samaradorligini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Nafta ishlab chiqarish hozirda quvvatning 70 foizida amalga oshirilayotgani, mahsulot esa 50 foiz arzon

narxlarda eksport qilinayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Naftadan polimer mahsulotlari ishlab chiqarilsa, qo‘shilgan qiymatni 6 karra oshirish imkoniyati borligini hisobga olib, mavjud quvvatlarni to‘liq ishlatish choralari ni ko‘rish topshirildi.

“O‘zbekneftgaz”ning moliyaviy holatini yaxshilash chora-tadbirlari ham ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda neft-gaz sohasida o‘g‘rilik va korrupsiya holatlariga qarshi kurashish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Sohadagi korrupsion xavflarni oldini olish maqsadida “O‘zbekneftgaz” tuzilmasida raisning alohida o‘rinbosari lavozimi kiritilib, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tashkil etildi. Tizimdagi har qanday noqonuniy holatni tezkor aniqlash va oldini olish bo‘yicha samarali tizim yaratish vazifasi qo‘yildi.

Prezidentimiz neft-gaz sohasida transformatsiyani chuqurlashtirish, gaz zaxiralarini va qazib olish hajmlarini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

14-YANVAR – Vatan himoyachilari kuni



BURGUTLAR BILAN BO‘YLASHIB

Men tug‘ilib o‘sgan qishloq Marhamat tumanidagi taniqli aviatsiya klubiga yaqin hududda joylashgan.

O‘quvchilik yillarimizda samolyotlar shundoqqina ustimizdan uchib o‘tar, oppoq parashyutlarda sakragan desantchi va sportchilar ko‘kda ko‘zlarimizni quvnatib, so‘ng yerga ohista qo‘nardi. Ularga hayrat bilan boqardik. Desantchi bo‘lish orzusi ham, ehtimol, shundan boshlangandir. Bu orzular meni o‘sha klub sari yetakladi. Hali boshlang‘ich sinflarda o‘qiyotgan paytimdayoq unga a‘zo bo‘lganman. Parashyutdan ilk bor sakraganimda 13 yoshda edim.

Muddatli harbiy xizmatni havo-desant qismida boshladim, keyinchalik faoliyatimni shartnoma asosida davom ettirdim. Bir necha bor xorijda o‘tkazilgan xalqaro musobaqalarda qatnashib, yutuqlarga erishdik. Bolaligimdan hozirgacha parashyutdan sakrashlarim soni 3300 dan oshadi.

Muallaq holatda parashyutdan sakrash har doim ham oson kechmaydi. Ba‘zan qiyin vaziyatlarga-da duch kelganman. Sakrash vaqtida ob-havo muhim rol o‘ynaydi. Xususan, maydoni cheklangan hududlarga talafotsiz qo‘nish uchun desantchi katta tajribaga ega bo‘lishi shart.

Davomi 6-beta



Yangi O‘zbekiston ruhi

MUROJAATNOMA: XALQ FAROVONLIGI YO‘LIDAGI ANIQ MARRALAR

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimiz hayotidagi siyosiy-iqtisodiy voqea sifatida tarixga kirmoqda. U muhim vazifalar dasturi bo‘lish barobarida so‘nggi to‘qqiz yilda bosib o‘tilgan islohotlar yo‘lini chuqur tahlil qilish, erishilgan natijalarni xolis baholash va yangi O‘zbekiston taraqqiyotining navbatdagi strategik bosqichini belgilab berishga qaratilgan mukammal konseptual hujjatdir.

Mazkur Murojaatnoma mamlakatimiz iqtisodiy modelining evolyutsiyasi, institutsional islohotlarning samaradorligi va jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar sharoitida mamlakatimizning strategik javobini o‘zida mujassam etgan keng qamrovli dastur.

Yangi iqtisodiy model: ochiqlik, samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat

Keyingi yillarda dunyo miqyosida globallashuv jarayoni yangicha mazmun kasb etmoqda. Geosiyosiy qarama-qarshiliklar, savdo urushlari, logistika zanjirlarining uzilishi, inflyatsiya bosimi va xavfsizlik tahdidlari kuchayib borayotgan bir paytda milliy iqtisodiyotdan nafaqat o‘lish, balki barqarorlik, moslashuvchanlik va texnologik raqobatbardoshlik talab etilmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda iqtisodiyotimizning izchil o‘tishda davom etayotgani, makroiqtisodiy muvozanat saqlanayotgani va islohotlar ijtimoiy natija berayotgani Murojaatnomada asosli raqamlar va dalillar bilan ko‘rsatib berildi.

2016-2017-yillarda mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifa iqtisodiy ochiqlikni ta‘minlash, bozor mexanizmlarini joriy etish va davlatning iqtisodiyotdagi ortiqcha ishtirokini qisqartirish bo‘lgan, bugun kun tartibida esa mutlaqo yangi masalalar turibdi. Ya‘ni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan iqtisodiy o‘tish modeliga o‘tish, inson kapitaliga tayanadigan taraqqiyot, ijtimoiy adolat va hududlar o‘rtasida mutanosib rivojlanishni ta‘minlash.

Islohotlarning eng muhim natijasi har bir inson hayotida sezilayotganidir. Bu esa iqtisodiy siyosatning to‘g‘ri yo‘natirilgan, davlat boshqaruvida qaror qabul qilish jarayoni tobora inson manfaatiga yanada ko‘p xizmat



qilayotganidan dalolat beradi. Bugun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, investitsiya hajmi yoki eksport o‘tishiga shunchaki maqsad emas, balki aholi farovonligini oshirishga xizmat qilayotgan vosita sifatida qaralmoqda.

Murojaatnomada keltirilgan yalpi ichki mahsulot hajmining tarixiy marralarga yetishi, oltin-valyuta zaxiralarining rekord darajada o‘tishi, suveren reytingning yaxshilanishi kabi faktlar iqtisodchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday ko‘rsatkichlar mamlakatning tashqi moliya bozorlaridagi ishonchini, sarmoya jalb qilish imkoniyatlari va uzoq muddatli barqaror o‘tish salohiyatini belgilab beradi.

Shu bilan birga, Murojaatnomada kelgusi besh yil uchun juda aniq hisob-kitob qilingan va iqtisodiy mantiqqa asoslangan marralar qo‘yilgan. Ayniqsa, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘tish modeliga o‘tkazish, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatidagi rolini kuchaytirish, inson kapitali va kasbiy ta‘limni yangi bosqichga olib chiqish masalalari strategik ahamiyat kasb etadi. Shu ma‘noda, ushbu Murojaatnomani yangi O‘zbekiston taraqqiyotining navbatdagi sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tish deklaratsiyasi deb baholash mumkin.

So‘nggi to‘qqiz yil iqtisodiy tariximizda tub burilish davri sifatida baholanishi, hech shubhasiz, asoslidir.

Chunki aynan shu davrda iqtisodiy rivojlanishning ma‘muriy-buyruqbozlik qoliplaridan voz kechilib, bozor iqtisodiyotining institutsional asoslari shakllantirildi.

Iqtisodiy fan nuqtayi nazaridan qaralganda, har qanday transformatsiyaning muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog‘liq. Birinchisi, siyosiy iroda, ikkinchisi, to‘g‘ri tanlangan institutsional islohotlar, uchinchisi esa jamiyatning ushbu islohotlarni qabul qilishi va qo‘llab-quvvatlashi.

Aynan shu uch omilning uyg‘unligi iqtisodiy islohotlarning barqaror va qaytmas tus olishiga xizmat qildi. Davlatimiz rahbarining qat‘iy siyosiy irodasi

bilan boshlangan ochiq iqtisodiy siyosat, valyutani liberallashtirish, tashqi savdoni erkinlashtirish, soliq va bojxona tizimini isloh qilish kabi qarorlar qisqa muddatda iqtisodiy muhitni tubdan o‘zgartirdi. 2016-yilga qadar iqtisodiyotdagi asosiy muammo resurslarni taqsimlashda shaffoflikning yo‘qligi va xususiy tashabbuslarning cheklangani bo‘lgan, keyingi yillarda esa asosiy e‘tibor iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va inson manfaatini islohotlar markaziga qo‘yishga qaratildi.

Davomi 2-, 3-betlarda

XALQ FAROVONLIGI YO‘LIDAGI ANIQ MARRALAR

Boshlanishi 1-, 2-betlarda

Davlatimiz rahbari urbanizatsiya masalasiga to‘xtalar ekan, shaharning tartibsiz kengayishining oldini olish, aglomeratsiyalarni belgilash va “barqaror shahar” platformasini joriy etish tashabbusini ilgari surdi. Bu shaharlarni faqat aholi soni jihatidan emas, balki iqtisodiy samaradorlik va hayot sifati nuqtayi nazaridan rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir. Chunki tartibsiz urbanizatsiya yer resurslarining yo‘qolishi, transport muammolari va ekologik bosimni kuchaytiradi. 45 ta aglomeratsiya hududini belgilash va “yashash uchun qulaylik indeksini”ni joriy etish orqali shaharlarning har bir mahallasi kesimida muammolarni aniqlash va maqsadli yechimlar ishlab chiqish imkoni paydo bo‘ladi. Bu esa shahar boshqaruvida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi. Bunday indekslar shaharlarni investitsiyaviy jozibador qilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Energetika infratuzilmasidagi islohotlar ham iqtisodiy o‘shishning muhim poydevorlaridan biri bo‘ldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining 85 milliard kilovatt-soatga yetkazilishi sanoat va xizmatlar sohasidagi o‘sib borayotgan talabni qoplash imkonini berdi. Agar bu quvvatlar yaratilmaganida iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirish haqida gapirishning o‘zi mushkul bo‘lardi.

Suv ta’minoti va irrigatsiya infratuzilmasidagi islohotlar esa aholi hayotining sifati bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Murojaatnomada keltirilgan 715 ming kishining xonadoniga birinchi marta toza ichimlik suv kirib borgan, yana millionlab odamning suv ta’minoti yaxshilangani ijtimoiy farovonlik oshganini ko‘rsatadi. Bu omillar ham iqtisodiy faollikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, infratuzilma siyosatining yangi jihatida byudjet mablag‘larini mahalla va tuman darajasida loyihaviy asosda taqsimlash mexanizmini alohida qayd etish lozim. Bu yondashuv hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va aholi ehtiyojlariga yaqin qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Belgilab berilgan infratuzilma va urbanizatsiya siyosati iqtisodiy o‘shishni hududiy jihatdan muvozanatli ta’minlash, shahar va qishloq o‘rtasidagi farqni qisqartirish hamda aholi uchun munosib yashash muhitini yaratishga qaratilgan. Bu siyosat yangi O‘zbekiston iqtisodiy modelida strategik ahamiyatga ega, kelgusi yillarda o‘shishning barqaror manbaiga aylanishi shubhasiz.

Mehnat unumdorligi va energiya samaradorligi ortadi

Bugun jahon iqtisodiyotida raqobat arzon ishchi kuchi yoki tabiiy resurslar hisobidan emas, balki bilim, texnologiya va innovatsiya asosida kechmoqda. Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish masalasiga alohida ustuvor ahamiyat berilgani aynan shu global tendensiyalarni chuqur anglagan holda qabul qilingan strategik qaror ekanini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy nazariyada “Industriya 4.0” tushunchasi ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, robototexnika va katta ma’lumotlardan foydalanish orqali mehnat unumdorligini keskin oshirishni anglatadi. Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligi va energiya samaradorligini ikki karra oshirish vazifasi qo‘yilgani O‘zbekiston ham aynan shu yo‘ldan borayotganini tasdiqlaydi.

Prezidentimizning “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi”ni tashkil etish tashabbusi sanoat uchun konseptual yangilikdir. Bu yondashuv investitsiya xavflarini kamaytiradi, texnologik qarorlarning samaradorligini oshiradi va biznes uchun innovatsiyalarga kirishni osonlashtiradi.

Raqamlashtirish siyosati nafaqat sanoat, balki xizmatlar sohasi uchun ham muhim darayvga aylanmoqda. AT, fintex, sun’iy intellekt kabi yo‘nalishlarda mahalliy startaplarga xorijiy investitsiyalar jalb qilinayotgani, AT xizmatlari eksportining 1 milliard dollarga yetgani iqtisodiyotning yangi segmenti shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu segment an’anaviy tarmoqlarga nisbatan kam resurs talab qiladi, biroq yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. “Raqamli startaplar” dasturini kengaytirish, inkubatsiya markazlarini rivojlantirish, ventchur moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Bu qarorlar innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki startaplar faqat yangi biznes emas, balki yangi fikrlash tarzi, yangi texnologiya va yangi bozorlar demakdir.

Ayniqsa, sun’iy intellekt sohasida rejalashtirilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. Toshkent va qator viloyatlarda data-markazlar, superkompyuterlar va oliyoghlarda sun’iy intellekt laboratoriyalarining tashkil

etilishi sog‘liqni saqlash, transport, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya va jamoat xavfsizligi kabi sohalarda samaradorlikni keskin oshirish imkonini beradi. Sun’iy intellektning keng joriy etgan mamlakatlar yaqin o‘n yillikda raqobatda ustunlikka ega bo‘ladi.

Raqamlashtirishning yana bir muhim jihatida davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarida inson omilini qisqartirishdir. Elektron hukumat,

Bugun jahon iqtisodiyotida raqobat arzon ishchi kuchi yoki tabiiy resurslar hisobidan emas, balki bilim, texnologiya va innovatsiya asosida kechmoqda.

davlatlarning ilg‘or ta’lim dasturlari asosida qayta jihozlash nafaqat ta’lim islohoti, balki iqtisodiyotni qayta qurishdir. Chunki zamonaviy sanoat, qurilish, transport va servis sohalari aynan shunday o‘rta bo‘g‘in mutaxassislariga suyanadi.

Dual ta’lim tizimining kengayib borayotgani esa o‘qitish bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni

salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Inflyatsiyani 6-6,5 foizga tushirish maqsadi qo‘yilgani davlatning aholi farovonligini himoya qilishda qat’iy pozitsiyada ekanini anglatadi.

Aholining uy-joyga talabi ichki talabni rag‘batlantiruvchi eng kuchli omillardan. 2026-yilda ipotekaga 23 trillion so‘m resurs ajratilishi, boshlang‘ich to‘lov va foizlarni subsidiyalash orqali uy-joy xarid qilish



proaktiv xizmatlar va ma’lumotlar integratsiyasi korrupsiya xavfini kamaytiradi, biznes uchun tranzaksiya xarajatlarni pasaytiradi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi. Bu esa iqtisodiy muhitning shaffoligi va ishonchini oshiradi.

Shu bilan birga, innovatsiya va raqamlashtirish inson kapitalisiz samara bermaydi. Yoshlarni AT, injeneriya va yuqori texnologiyali sohalariga yo‘naltirish, ta’lim tizimini raqamli iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish vazifalari qo‘yilgani bejiz emas. Bu, iqtisodiy siyosat bilan ta’lim siyosati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning yorqin namunasidir.

Qisqasi, innovatsiya, raqamlashtirish va “Industriya 4.0” bo‘yicha belgilangan vazifalar iqtisodiyotni raqobatbardosh, samarali va kelajakka yo‘naltirilgan tizimga aylantirishga qaratilgan. Bu yo‘ldan borish tanlov emas, balki zamon talabidir.

Innovatsiya va inson kapitali uyg‘unligi

Iqtisodiy taraqqiyot tarixiga nazar tashlasak, har qanday uzoq muddatli va barqaror o‘shishning poydevori inson kapitali ekanini ko‘ramiz. Tabiiy resurslar tugaydi, texnologiyalar eskiradi, ammo bilim, ko‘nikma va tafakkurga sarmoya kiritgan jamiyat doimo yangilanish qudratiga ega bo‘ladi. Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish masalasining alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani aynan shu strategik haqiqatdan kelib chiqadi.

Bugun dunyoda mehnat bozori tubdan o‘zgarimoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti va yetakchi ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, yaqin besh yilda mavjud kasblarning kamida 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, yana 50 foizi bo‘yicha yangi kompetensiyalar talab qilinadi. Bu jarayon mamlakatimiz uchun ham jiddiy chaqiriq, ham ulkan imkoniyatdir. Chunki aholining yosh tarkibi, demografik o‘shish va ta’limga talab mamlakatimizni raqobatbardosh kadrilar yetishtirish bo‘yicha ustun pozitsiyaga chiqarishi mumkin.

Mehnat bozorini “kasb — malaka — texnologiya — ta’lim”ni birlashtirgan yagona mexanizm sifatida qayta qurish g‘oyasi ilgari surildi. Bu yondashuv mehnat bozoridagi asosiy muammolardan biri — ta’lim tizimi bilan iqtisodiyot ehtiyojlari o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etishga qaratilgan. Aynan shu uzilish ko‘plab mamlakatlarida yoshlar ishsizligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosini keltirib chiqaradi.

Murojaatnomada 9-sinf bitiruvchilarini kasbiy yo‘naltirish, fanlarni o‘zlashtirish darajasi va qiziqishlariga qarab saralash tizimini joriy etish taklifi juda muhim islohotdir. Bu qaror yoshlarni erta bosqichda o‘z qobiliyatiga mos yo‘lni tanlashga undaydi. Oliy ta’limga majburiy ravishda intilmasdan, talab yuqori bo‘lgan amaliy kasblarni egallash imkoniyati iqtisodiy nuqtayi nazaridan ham, ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ham to‘g‘ri qaror.

Kasbiy ta’lim tizimining markaziy bog‘ini sifatida texnikumlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish rejalari alohida tahsinga loyiq. Har yili kamida 100 ta texnikumni to‘liq modernizatsiya qilish, ularni Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi

amalda ta’minlamoqda. Bugun 70 mingga yaqin o‘quvchining ishlab chiqarish korxonalarida oyiga 10 million so‘mgacha maosh olib o‘qiyotgani ta’limning iqtisodiy samaradorligiga yaqqol misoldir. Bu yoshlar o‘qishni tugatgandan so‘ng ish qidirib sarson bo‘lmaydi, balki tayyor mutaxassis sifatida mehnat bozoriga kirib keladi.

“Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlari” va “Kasblar shaharchasi”ni tashkil etish tashabbusi mehnat bozorini uzoq muddatli rejalashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab o‘quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo‘jaligi, sanoat, “yashil” energetika va AT kabi sohalarga erta yo‘naltirish orqali kasbiy tanlovni ongli qilish mumkin. Bu esa mehnat resurslarining noto‘g‘ri taqsimlanishi xavfini kamaytiradi.

Oliy ta’lim tizimida ham inson kapitalini chuqurlashtirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Jizzax politexnika institutining xorijiy nufuzli universitet boshqaruviga o‘tkazilishi, Yaponiya bilan hamkorlikda aniq fanlar bo‘yicha yangi oliyog‘ ochilishi bilim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lidagi dadil qadamdir. Bu jarayonda universitetlar faqat diplom beruvchi emas, balki innovatsiya va texnologiya markazlariga aylanishi kerak.

Mehnat bozoriga har yili 300 mingga yaqin oliy ma’lumotli kadr kirib kelayotgan sharoitda bitiruvchilar bilan ish beruvchilar o‘rtasida raqamli ko‘priklar yaratish g‘oyasi ham iqtisodiy jihatdan o‘ta dolzarb. Akademik ko‘rsatkichlar va bo‘sh ish o‘rinlari onlayn tarzda bog‘langan ekotizim mehnat bozorida axborot asimetriyasini kamaytiradi, ishsizlik muddatini qisqartiradi va kadrlar sifatini oshiradi.

Inson kapitali va mehnat bozori bo‘yicha belgilangan islohotlar iqtisodiyotni texnologik rivojlantirishning asosiy sharti. Agar innovatsiya iqtisodiyotning “yuragi” bo‘lsa, inson kapitali uni harakatga keltiruvchi quvonimlaridir. Bu ikkisi uyg‘un rivojlanmas ekan, barqaror o‘shish haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Oshayotgan xarid qobiliyati

Iqtisodiy o‘shish faqat yalpi ichki mahsulotning o‘shishi bilan emas, balki uning aholi hayotida qanday aks etayotgani bilan baholalanadi. Ichki talabni rag‘batlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va aholi daromadini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki barqaror iqtisodiy o‘shishning eng muhim sharti aholining xarid qobiliyati va bozorlardagi ishonchli talabdir.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, ichki talab iqtisodiyotning “ichki dvigateli”. Ekspert qanchalik muhim bo‘lmasin, keng va barqaror ichki bozorga ega mamlakatlar tashqi shoklarga nisbatan ancha chidamli bo‘ladi. Keltirilgan raqamlar yurimizda aynan shunday ichki bozor shakllanayotganini ko‘rsatadi. Aholining xarid qobiliyati so‘nggi yillarda ikki barobar oshgani bu jarayonning eng yorqin dalilidir.

Inflyatsiyani “bir xonali” darajada ushlab turishga erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim yutuq. Chunki yuqori inflyatsiya, avvalo, kam daromadli aholini kambag‘allashtiradi, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va investitsiya muhitiga

imkoniyati kengaytirilishi nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy samara ham beradi. Qurilish sohasi bilan bog‘liq o‘nlab tarmoqlar: qurilish materiallari, mebel, elektr texnikasi, to‘qimachilik va servis xizmatlari faollashadi. Bu esa iqtisodiyotda multiplikativ ta’sirni kuchaytiradi.

Besh yil oldin 210 mingta kvartira xarid qilgan bo‘lsa, bu yil 270 mingta uy sotib olingani aholining real daromadlari oshganidan dalolat beradi. Shuningdek, avtomobil bozoridagi o‘shish ham iste’mol talabining




jadallashganini ko‘rsatadi. Bu jarayonlar faqat iste’molni emas, balki ishlab chiqarishni ham rag‘batlantiradi.

Iste’mol kreditlari hajmini oshirish, ularni maqsadli va oqilona yo‘naltirish siyosati ham ichki talabni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. 2026-yilda 125 trillion so‘mlik iste’mol krediti ajratilishi bozorlarda aylanmani kuchaytiradi, biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu jarayon inflyatsiya xavfini oshirmasligi uchun moliyaviy intizom va makroiqtisodiy nazorat kuchli bo‘lishi shart.

Xizmatlar sohasi aholi farovonligi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq iqtisodiy segmentdir. Bu yil xizmatlar hajmining 82 milliard dollarga yetgani va 2026-yilda 100 milliard dollardan oshirilishi rejalashtirilayotgani iqtisodiyotning yangi darayvri shakllanayotganini anglatadi. Ta’lim, tibbiyot, turizm, transport va maishiy xizmatlarga talab oshgani jamiyatda turmush sifati yaxshilanib borayotganidan dalolat.

Turizm sohasida belgilangan yirik infratuzilma loyihalari: Samarqand, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi majmualarni rivojlantirish ichki va tashqi talabni bir vaqtning o‘zida rag‘batlantiradi. Sayyohlik xizmatlari nafaqat valyuta tushumi, balki mahalliy aholi uchun minglab yangi ish o‘rinlari demakdir.

Ichki talab, inflyatsiya va aholi farovonligi o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan siyosat iqtisodiy o‘shishning ijtimoiy mazmunini ta’minlaydi. Iqtisodiy raqamlar ortida inson, oila va mahalla farovonligi turgani ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi.



Ekologik muvozanat

XXI asrda iqtisodiy o‘shishni faqat sanoat quvvatlari yoki investitsiya hajmi bilan o‘lchash davri tugab bormoqda. Bugun rivojlangan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotni ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish bilan uyg‘un holda olib bormoqda. Murojaatnomada ekologiya va “yashil” iqtisodiyot masalalariga keng o‘rin berilgani O‘zbekiston ham global taraqqiyotning aynan shu yo‘lini tanlaganini ko‘rsatadi.

Ekologik muammolar, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, havo ifloslanishi va suv tanqisligi kabi masalalar iqtisodiyot uchun ham jiddiy xavf. Chunki ekologik degradatsiya mehnat unumdorligini pasaytiradi, sog‘liqni saqlash xarajatlarni oshiradi va investitsiya muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, belgilangan ekologik islohotlar faqat tabiatni muhofaza qilish emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ham qaratilgan.

“Yashil” energetika sohasida so‘nggi besh yilda 6000 megavattli quvvatlar ishga tushirilgani, umumiy generatsiyada qayta tiklanuvchi energiya ulushining 30 foizga yetgani tarixiy yutuqdir. Bu natijalar nafaqat energiya xavfsizligini mustahkamlash, balki tashqi energiya resurslariga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish uzoq muddatda davlat budjeti va to‘lov balansi uchun ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat, “yashil” energiya hisobiga 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejallishi va havoqa 11 million tonna zararli moddalar

chiqishining oldi olinishi haqidagi prognozdir. Bu raqamlar ekologiya va iqtisodiyot o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikni namoyon etadi. Gazni tejash eksport salohiyatini oshirish, zararli chiqindilarni kamaytirish esa aholi salomatligini muhofaza qilish demakdir.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi esa strategik ahamiyatga ega. Dunyoda suv tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Murojaatnomada 5,5 milliard dollarlik dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovini 61 foizga yetkazish, yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejash rejalari belgilandi. Bu raqamlar agrar iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish, kanallarni betonlash va yopiq drenaj tizimlariga o‘tish orqali suv yo‘qotishlarni kamaytirish ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Qo‘shimcha ekin maydonlarining ochilishi, kafolatli suv ta’minoti qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ozuq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyati uchun muhim omildir.

Shahar ekologiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratilgani ham juda muhim. Avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalarga qarab ekologik stikerlar joriy etish, eski transport vositalarini almashirishni rag‘batlantirish, jamoat transportini rivojlantirish — bulaning barchasi shaharlarda yashash sifatini yaxshilashga qaratilgan choralar. Tirbandlik va havo ifloslanishi kamaygan shaharlar investor va sayyohlar uchun ham jozibador bo‘ladi.

Ekologiya sohasida kadrlar tayyorlash masalasiga strategik yondashuv taklif qilinmoqda. Har bir hududda “yashil” texnikumlarni tashkil etish, ekologiya menejerlari tayyorlash yangi mehnat bozori segmentining shakllanayotganini anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazaridan, bu “yashil” iqtisodiyotda qo‘shimcha qiymat yaratish, innovatsiya va xizmatlar bozorini kengaytirish imkonini beradi.

Ekologiya va “yashil” iqtisodiyotga qaratilgan siyosat taraqqiyotning yangi paradigmasini belgilab bermoqda. Bu paradigmada iqtisodiy o‘shishga tabiatni asrash, inson salomatligini himoya qilish va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat bilan uyg‘un holda qaraladi.

Faol, ochiq va pragmatik tashqi siyosat

Hozirgi globalashuv sharoitida hech bir mamlakat tashqi dunyodan ayri holda barqaror rivojlana olmaydi. Ayniqsa, ochiq iqtisodiyot yo‘lini tanlagan, eksport va investitsiyaga tayanayotgan davlatlar uchun tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya ichki islohotlardan kam ahamiyat kasb etmaydi. Murojaatnomada tashqi siyosat masalalariga keng o‘rin ajratilib, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va roli muloqot yangi bosqichga ko‘tarilgani ta’kidlandi.

Keyingi yillarda tashqi siyosatda ochiqlik, pragmatizm va o‘zaro manfaat tamoyillariga asoslangan yo‘l izchil davom ettirilmoqda. Bu siyosatning iqtisodiy samarasi aniq raqamlarda namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmining keskin oshishi, eksport geografiasining kengayishi va xalqaro reytinglarda mamlakat obro‘sining yuksalishi aynan iqtisodiy diplomatiyaning samarali ekanini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish tashabbuslari alohida ta’kidlandi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida chegara masalalarining hal etilishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning faollashishi, qo‘shma infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi hudud barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtisodiy nuqtayi nazaridan, integratsiya ichki bozorni kengaytiradi, logistika xarajatlarni kamaytiradi va investitsiyalar uchun katta hududiy bozor yaratadi.

Ozarbayjonning Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilinishi ham geosiyosiy va geoiktisodiy jihatdan tarixiy qarordir. Bu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida transport, energetika va savdo yo‘nalishlarida yangi imkoniyatlar ochadi. “Sharq — G‘arb” va “Shimol — Janub” yo‘nalishlaridagi tranzit salohiyatining oshishi O‘zbekistonni mintaqaviy logistika xabiga aylantirish strategiyasiga mos keladi.

Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolaniishi iqtisodiy diplomatiyaning yana bir muhim yutuq‘idir. Bu hujjat savdo rejimini liberalashtirish, texnik standartlarni yaqinlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Yevropa bozoriga chiqish imkoniyatlarining kengayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga turki beradi.

AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa yetakchi davlatlar bilan strategik sheriklikni chuqurlashtirish ham iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tokio, Bryussel, Sankt-Peterburgdagi sammit va uchrashuvlar natijasida erishilgan kelishuvlar ta’lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar, infratuzilma va sanoat sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Iqtisodiy diplomatiyaning muhim jihatida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdir. Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tuzilmalar bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda muhim resursdir.

Shu bilan birga, tashqi siyosatning muvaffaqiyati ichki barqarorlik va qonun ustuvorligi bilan bevosita bog‘liq. Tinchlik va xavfsizlik ta’minlangan mamlakatga investitsiya ham keladi, turizm ham rivojlanadi.

Tashqi siyosatga oid qarashlar iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog‘langan pragmatik yondashuvdir. O‘zbekiston tashqi siyosat orqali o‘z milliy manfaatlarini ilgari surish, iqtisodiy o‘shishni jalallatirish va global jarayonlarda munosib o‘rin egallash yo‘lidano bormoqda.

Murojaatnomada yangi O‘zbekistonni daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan, texnologik rivojlangan, ijtimoiy adolatli va ma’naviy barqaror davlat sifatida shakllantirishga qaratilgan tarixiy dastur. Uning muvaffaqiyati esa faqat davlat organlari yoki parlament emas, balki butun xalqimiz bilan bog‘liq.

Biz birlashib harakat qilsak, bilim, mehnat va mas’uliyatga tayansak, Murojaatnomada belgilangan ulkan marralar, albatta, ro‘yobga chiqadi. Yangi O‘zbekiston orzu emas, birgalikda qurilayotgan real taraqqiyot yo‘li.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili O'zbekistonning meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti qiymati ilk bor 3,2 milliard dollarga yaqinlashdi. Bu salkam 141 foiz o'sish degani.

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

SIFAT

BIRLAMCHI TALAB

O'ZBEKISTON YANGI BOZORLARINING BARQAROR EKSPORTYORIGA AYLANMOQDA

Oziq-ovqat xavfsizligi

Eksportda bir martalik son emas, barqaror o'sish ko'rsatkichlari muhim. Ya'ni yirik xaridorga bir marta mahsulot yetkazib berishdan ko'ra, doimiy bozorlarning barqaror hamkoriga aylanish manfaatliroq. Bunda o'zaro ishonchning o'zi kamlik qiladi. Xalqaro bozorda mustahkam o'rin egallash uchun xaridor talabiga mos, sifatli mahsulotni hamma mavsumda uzluksiz yetkazib berish zarur.



Bundan bir necha yil oldin mamlakatimizning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirish, an'anaviy bozorlardan tashqariga chiqish uchun soha oldiga barqaror yetishtirish va yetkazib berish vazifasi qo'yilgandi. Shunga yarasha qator islohotlar o'tkazildi, aniq sa'y-harakatlar bajarildi. Natijada O'zbekiston o'tgan yili bir qancha xorijiy davlatlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beruvchi barqaror eksportyorlar qatoridan joy oldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili O'zbekistonning meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti qiymati ilk bor 3,2 milliard dollarga yaqinlashdi. Bu salkam 141 foiz o'sish degani. Yurtimizda yetishtirilgan mahsulotlar qo'shimcha 18 ta yangi bozorga kirib borib, eksport geografiyamiz 89 davlatga yetdi. Yangi importyorlar qatoriga Gvatemala, Ekvador, Misr, Sloveniya, Daniya, Malta kabi davlatlar qo'shilgan. Eksport qilingan meva-sabzavotlar turi esa 110 dan oshdi.

Gap faqat raqamlarda emas. Son bilan birga sifat ham oshib boryapti. Eksportda bu eng muhim jihatlardan biri bo'lgani holda keyingi yillarda yurtimizda ayni yo'nalishda aniq va tizimli ishlar bajarilmoqda. Jahon bozorida mahsulotning sifatidan qadoqlanishigacha, xususan, xalqaro standartlarga mosligi kabi har bir jihat aniq mezonlar asosida o'lchanadi. Ana shu talablarga javob berish eksport hajmini oshirish barobarida milliy brendni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada qilinayotgan ishlar ko'lami esa ancha keng. Avvalo, tuproqni ekinga tayyorlashdan eksportbop mahsulot yetishtirishigacha bo'lgan jarayonni qamrab olgan tizim yaratilgan.

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi direktori Ibrohim ERGASHEV bilan suhbatimiz jahon oziq-ovqat bozoridaagi asosiy talablar, sifat standartlariga moslik, mamlakatimiz eksport hajmini oshirish yo'nalishida qilinayotgan ishlar va bu borada asosiy vazifalar xususida bo'ldi.

— Jahon bozorida eksport talablarining tobora oshib borayotgani oziq-ovqat xavfsizligi masalasi bilan ham bog'liq. Global ekologik xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mahsulotlar sifatiga talab ortayotgani tabiiy hol. Dunyo aholisi ekologik toza mahsulot iste'mol qilishga intilyapti. Natijada importyor davlatlar oziq-ovqat, xususan, meva-sabzavotlarni xarid qilishda fitosanitar xavfsizlik talablariga jiddiy e'tibor qaratyapti, — deydi I.Ergashev. — Biz endi quyoshli o'lkamizda pishib yetiladigan meva-sabzavotlarning juda mazali, tabiiy ekanini aytilish bilangina xaridorlarni ishonтира olmaymiz. Vaholanki, yillar davomida shuning o'zi bilan cheklanganimiz bois, qo'shni an'anaviy bozorlardan tashqariga chiqa olmadik. Bugun esa, avvalo, o'zimizga talablarimiz o'zgargan. Mahsulotlar soni va sifatini oshirish bilan birga ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, jahon bozorida milliy brendimizni keng yoyishga intilyapmiz. Buning uchun har bir jihat — tuproq sifatidan tortib, mahsulot eksport qilingunga qadar bo'lgan jarayon xalqaro talablar asosida bajarilyapti. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash, markirovkalash va xalqaro standartlar asosida eksport qilishda tajribamiz oshib bormoqda. Biz bu mexanizmini joriy etib, unga moslashishga erishdik. Endi bularni faqat takomillashtirib boramiz.

Prezidentimizning tegishli qaroriga binoan 2021-yilda tashkil etilgan O'simliklar karantini va himoyasi agentligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar ham shulardan iborat. O'tgan davrda tashkilot faoliyati yo'nalishi kengayib, zimmasiga yangi vazifalar yuklandi. Bugun agentlik o'simliklar karantini, himoyasi va agrokimyoviy tahlil markazi, "Biosifat" respublika markazi faoliyat yuritib kelmogda.

Ularda mahsulotlar sifatini tekshirilib, tegishli fitosanitar sertifikat va karantin ruxsatnomalari beriladi. Shu bilan birga, agentlik o'simliklar karantinidagi mahsulotlar turlari, urug'liklar, o'simliklar, o'simlik mahsulotlari va boshqa materiallarni karantin tekshiruvi hamda laboratoriya ekspertizasidan o'tkazish;

urug'liklar, o'simliklar, o'simlik xomashyosi, boshqa o'simlik mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (xalq iste'moli tovarlari) ni mamlakat ichida tashish, eksport qilish uchun olib chiqishning karantin qoidolari hamda ulardan foydalanish shartlarini tasdiqlash; mamlakatimiz uchun o'simliklar karantinida bo'lgan zararli organizmlar, chetdan kiritilishi

Tizim to'liq raqamlashib borayotgani ham eksport jarayonini tez va sifatli yo'lga qo'yishga xizmat qilyapti. Masalan, o'tgan yili agentlikning "E-fito.uz" axborot tizimi Bojxona qo'mitasi elektron platformasi bilan integratsiya qilindi.

“

muim bo'lmagan ekish materiallari, o'simliklar karantini ostidagi mahsulotlar, respublikamiz hududidan olib chiqilishi mumkin bo'lmagan o'simliklar karantinidagi mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlash; zararli organizmlarga qarshi kurashning biologik usulini keng qo'llash

olib keladi. Chunki eksport bir korxona yoki shaxsning emas, balki mamlakat manfaatini ifodalaydigan muhim jarayondir.

Keyingi yillarda jahon bozorida mahsulotlar qadog'iga ham e'tibor oshmoqda. Qadoq qancha



choralarini ko'rish kabi ko'plab vazifalarga ham mas'ul.

Xalqaro tartib-tamoyillarga asosan O'zbekistondan eksport qilinadigan mahsulotlar, avvalo, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi Markaziy fitosanitariya laboratoriyasi va laboratoriyaning hududiy filiallarida ekspertizadan o'tkaziladi. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan mazkur laboratoriya xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan bo'lib, tuzilma taqdim etadigan xulosalar asosida meva-sabzavotlar eksport qilinadi. Markaz eng so'nggi rusedagi zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bugun 6 yo'nalishdagi fitosanitariya ekspertizalarini o'tkazish, o'simliklarning barcha yo'nalishida kasallik va zararkundalarni aniqlash imkoniyati mavjud. Masalan, pomidor va bulg'or qalpmpiri uzluksiz ravishda 8 soat davomida PZR tekshiruvidan o'tkaziladi va ijobiy natija ko'rsatishga eksportga ruxsat etiladi. O'tgan yili laboratoriyada import qilingan mahsulotlar bo'yicha 324,8 mingta ekspertiza o'tkazildi. Shundan 940 holatda 27 turdagi karantin obyektlari aniqlanib, xavfli zararli organizmlar kirib kelishining oldi olindi va tegishli choralar ko'ridi.

Shuningdek, 2025-yilda 9 davlatga 39 turdagi mahsulot eksporti uchun fitosanitar ruxsatnomalari olindi. Natijada fitosanitar ruxsatnomalar soni 647 taga yetdi. Ya'ni eksportga chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati tekshirilgach, ularga tegishli xalqaro sertifikat beriladi. Shundan keyingina xorijga chiqariladi.

Boisi, eksportga tayyorlanayotgan mahsulot fitosanitar xavfsiz, turli kasallik va zararkundalardan xoli bo'lishi lozim. Aks holda, bu importyorning ishonchiga putur yetkazish barobarida milliy brendga dog' bo'lib tushadi hamda eksport hajmining qisqarishiga



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

ta'minlashdir. Shu sababli 2026-yilning meva eksporti mavsumiga hozirdan tayyorgarlik boshlab yuborilgan. Axir, Janubiy Koreyanikidek talabchan bozorlarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining ortishi meva-sabzavotlarni yetishtirish, qadoqlash, markirovkalash borasidagi talablarni yanada keng joriy etishni taqozo qiladi.

Eksport hajmining ortishida xalqaro ko'rgazmalarining ham o'rni katta. Avvallari tadbirkorlarimizning bunday ko'rgazmalarda ishtirok etishi bir mashaqqat bo'lsa, u yerda hamkorlar topish yanada murakkab edi. Hozir esa, aksincha, bunday xalqaro ko'rgazmalar aynan yangi hamkorlar topishda zarur maydonga aylangan. Shu bois, mahalliy tadbirkorlarning ulardagi ishtirokini davlatimiz har tomonlama qo'llab-quvvatlayapti.

O'tgan yili birgina O'simliklar karantini va himoyasi agentligi ko'magida 200 ga yaqin eksportchi korxona vakillari xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etdi. Turli davlatlarda tashkil etilgan "O'zbekiston mahsulotlari" savdo yarmakalari doirasida 150 dan ortiq eksportyor jami 23,5 million dollarlik eksportoldi kelishuvlarga erishdi. BAA, Shvetsiya, Malayziya, Yaponiya, Mo'g'uliston kabi davlatlarning yirik savdo tarmoqlarida uzum, anor, qovun, olxo'ri, quritilgan va qayta ishlangan meva-sabzavotlarning doimiy sotuvi yo'lga qo'yildi.

— O'zbekiston 2026-yilda Jahon savdo tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lishni maqsad qilgan. Bu yanada katta bozor sari yo'l degani. Shu bilan birga, mahsulotlarimiz eksportida xalqaro talablar yanada qat'iyilashadi. Bunga moslashish bo'yicha, umuman, joriy yilda ushbu yo'nalishda qanday vazifalar belgilab olingan?

— 2030-yilgacha mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti qiymatini 10 milliard dollarga yetkazishdek yuqori marrani ko'zlagamiz. Shundan kelib chiqib, joriy yilda oldimizga qo'yilgan vazifalar ham, ko'zlangan marralar ham nihoyatda salmoqli. Avvalo, meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini 140 foizdan oshirishni boshlang'ich maqsad qilganmiz. Boisi, JSTGa a'zolik bu kutilmani yanada oshirishi mumkin. Har qanday holatda ham eksport geografiasini kengaytirish va yangi bozorlarga chiqish ishlari faol davom ettiriladi.

Eksportda yuqori natijani ta'minlash hosildorlikni oshirish bilan bog'liq. Shu bois, joriy yilda yurtimiz qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish, dala chetlarida ham iqlimga mos olcha, olxo'ri kabi mevalarni yetishtirish rejalashtirilgan. Qolaversa, 4,3 million gektar yerda dala nazorati monitoringini o'tkazish, 731 ming gektar maydonda agrokimyoviy kartogramma ishlab chiqish, pestitsid va mineral o'g'itlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy qilish ishlari boshlab yuborilgan.

Mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari hamda fermer xo'jaliklarining davlat ro'yxatidan o'tmagan kimyoviy vositalarni ko'llamasligi bo'yicha yangi tartibni ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish, xususiy sektorning zararsizlantirish (fumigatsiya) tadbirlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash kabi qator amaliy vazifalar ham belgilangan.

Bu vazifalar jahon standartlariga moslangan bo'lib, ularning aynan xalqaro talablar bilan uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi. Boisi, O'zbekistonning JSTGa a'zo bo'lishi mahsulotlar eksporti hajmini oshirish uchun imkoniyat taqdim etishi bilan birga yangi tartib-taomillarni joriy etishni taqozo qiladi. Laboratoriya tekshiruvlari, sifat nazorati va boshqalar shular jumlasidan.

Shu bois, yangi joriy etilgan ana shunday tartiblardan biriga ko'ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistondan eksport qilinayotgan barcha turdagi qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, jumladan, quritilgan mahsulotlar "Certificate of Analysis" (CoA) tahlilidan o'tkazilishi talab etiladi. Mazkur talab O'zbekistondan Yevropa Ittifoqi davlatlari bozoriga eksport qilinayotgan mahsulotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan "Atyab International Services" hamda "Control Union" xalqaro laboratoriyalarini jalb etgan holda joriy qilinmoqda.

"Atyab International Services" oziq-ovqat xavfsizligi, laboratoriya tahlillari va muvofiqlikni baholash sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilot bo'lib, Yevropa va Yaqin Sharq bozorlari uchun qabul qilinadigan tahlil natijalarini taqdim etadi. "Control Union" esa 100 dan ortiq mamlakatda faoliyat yurituvchi, oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sohasida xalqaro standartlar asosida sertifikatlash va laboratoriya xizmatlarini ko'rsatuvchi nufuzli tashkilot.

"Certificate of Analysis" tahlili esa pestitsid qoldiqlari, og'ir metallar, mahsulotning mikrobiologik xavfsizligi hamda boshqa muhim texnik va sanitar ko'rsatkichlar bo'yicha tekshiradi. Yangi mexanizm eksportdan oldin mahsulotlarning xalqaro standartlar va import qiluvchi davlatlar reglamentlariga to'liq muvofiqligini tasdiqlashga qaratilgan bo'lib, eksport jarayonidagi xavf-xatarlarni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada eksport mahsulotlarining xavfsizligi va sifati kafolatlanadi, eksportchilar moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilinadi, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro bozorlarda O'zbekiston mahsulotlariga ishonch mustahkamlanadi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

shug'ullanuvchi korxonalarga qator imtiyoz va yengilliklar berildi. Masalan, mahsulotini zamonaviy qadoqlarda eksport qiladigan korxonalar uchun foyda solig'i 15 foizdan 1 foizga tushirildi. Ularning xodimlari uchun qo'llanadigan 12 foizli ijtimoiy soliqlar ham 1 foizga qisqartirildi. Qolaversa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini aholi tomoqlari, dehqon va fermerlardan yig'ib, saralab, zamonaviy qadoqlab, eksport qilgan korxonalarga har bir qadoqning 3000 so'mdan oshmagan qismi qoplab berilishi tartibi joriy etildi. Faoliyatida xalqaro standartlarni qo'llagan tadbirkorlik subyektlarining esa sertifikat olish xarajati to'liq qoplab berilmoqda. Bularning barchasi eksportyor korxonalarning soliq yuklamasi kamayib, mablag'ni tejashi va daromadi oshishiga xizmat qilyapti.

Umuman, o'tgan yili O'simliklar karantini va himoyasi agentligi uchun ham mas'uliyatli, sernamzun va samarali kechdi. Yil davomida

ham eksport jarayonini tez va sifatli yo'lga qo'yishga xizmat qilyapti. Masalan, o'tgan yili agentlikning "E-fito.uz" axborot tizimi Bojxona qo'mitasi elektron platformasi bilan integratsiya qilindi. Bu orqali meva-sabzavot mahsulotlari eksporti statistikasini ular yetishtirilgan hudud bo'yicha shakllantirish mexanizmi ishga tushirildi. Shuningdek, 52 ming 273 ta fermer xo'jaligida "Dala daftari"ni yuritish tizimi yo'lga qo'yildi.

Asosiy natijalar yurtimiz meva-sabzavoti eksporti hajmida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu yo'nalishda eksport geografiamiz 89 davlatga yetishi barobarida, O'zbekiston ko'plab mamlakatlar uchun barqaror mahsulot yetkazib beruvchi eksportyorga aylandi. Ilk bor Mo'g'ulistonga 1 million 481 ming dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.

Mamlakatimiz bo'ylab qiymati 34 million dollardan ortiq salkam 2 million tonna quvvatga ega, qadoq mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 27 ta loyiha ishga tushirildi. Mahsulot yetishtiruvchi, yig'uvchi, tayyorlovchi hamda eksportchilar ishtirokida 388 ta qishloq xo'jaligi kooperativ tashkil qilindi. Organik sertifikatga ega ekin maydonlari 13 ming gektarga yetkazildi.

”

zamonaviy, noodatiy, xalqaro markirovka talablariga mos bo'lsa, mahsulotning xaridorjirigili shuncha oshmoqda. Chunki bugun qadoq faqat chiroyli ko'rinish emas, balki ekologik, mustahkam, tashishga qulay va zarur axborot aks ettirilgan muhim o'ramdir. Xalqaro Global GAP sifat talablariga ko'ra, qadoqlab aniq ma'lumotlar, original dizayn va QR-kod bo'lishi zarur. Xaridor ushbu kod orqali mahsulot haqidagi barcha ma'lumotlar hamda sertifikatlarini osongina tekshiradi.

— 2025-yil mamlakatimiz qishloq xo'jaligini takomillashtirish va yangilash yili bo'lgani ta'kidlanmoqda. Sohadagi raqamlar, ko'rsatkichlar ham shuni ko'rsatayapti. Xususan, meva-sabzavot eksporti hajmi sezilarli oshib, o'nlab yangi bozorlarga kirib borildi. Ayrim mevalarning rekord darajada eksport qilindi, shunday emasmi?

— Haqiqatan, o'tgan yil ko'plab sohalarda qatori qishloq xo'jaligida ham sernamzul bo'ldi. Biz shunday islohotlar davrida bu natijalarni endi shunchaki ob-havo yoki boshqa tabiiy omillar bilan bog'lay olmaymiz. Chunki erishilayotgan natijalar asosida sohadagi katta amaliy ishlar, ilmiy asoslangan sa'y-harakatlar, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi va albatta, shu yo'nalishdagi dehqon, fermer, tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar mujassam. Bu boradagi chora-tadbirlar o'tgan yili boshidanoq Prezidentimizning tegishli qarori asosida belgilanib, aniq ishlarga kirishilgan edi. Birgina imtiyozlar yo'nalishida olsak, dehqon va fermerlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, subsidiya va kreditlar tizimini soddalashtirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi. Meva-sabzavot eksporti bilan

mamlakatimiz fitosanitar xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirish, dalalar chetidan samarali foydalanish, eksportyor tadbirkorlar faoliyatini davlat ko'magida rivojlantirish, qadoqlangan mahsulotlar eksporti orqali to'lov qobiliyati yuqori davlatlarga O'zbekiston

Birgina Janubiy Koreyaga gilos va anor eksporti bo'yicha mamlakatimiz yetakchi o'ringa chiqdi. Joriy yildan ushbu davlatga gilos eksporti hajmini yanada oshirish ko'zlangan. Janubiy Koreya bozorlariga ushbu mevani to'g'ridan to'g'ri olib kirish bo'yicha



mahsulotlarini olib chiqish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash borasida izchil ishlar bajarildi.

Mamlakatimiz bo'ylab qiymati 34 million dollardan ortiq salkam 2 million tonna quvvatga ega, qadoq mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 27 ta loyiha ishga tushirildi. Mahsulot

muzokaralar o'tkazilyapti. Bunga imkoniyatimiz yetarli. Avvalo, intensiv bog'lar maydonini kengaytirish, eksportbop navlarni ko'paytirish, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishni davom ettirish zarur. Eng muhim talablardan yana biri esa fitosanitar xavfsizlikni



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Nuqtayi nazar

Inson qadrini ulug‘lash konsepsiyasi boshqaruv samaradorligining oliy mezonini bo‘lib kelgan. Zamonaviy O‘zbekistonda bu g‘oya barchamizning ko‘z o‘ngimizda falsafiy kategoriyadan davlat qurilishining amaliy paradigmasiga aylandi.

ILM-FAN –
TARAQQIYOT KALITI

Fazliddin MO‘MINOV,
oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
bo‘lim boshlig‘i

Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilingani mamlakatimiz taraqqiyotida sifat jihatidan yangi davr boshlanganidan dalolat beradi. Ushbu strategiya mamlakat farovonligi har bir insonning sa’y-harakati bilan uzviy bog‘liqligi, fuqarolik jamiyatining noyob instituti mahalladan boshlab barpo etilishini anglatasa, yangi yilimiz nomidagi “jamiyat yuksalishi” esa ilm bilan mustarakligini davrning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Dunyo ahli chuqur anglayotganidek, endi yurtimiz faqat xomashyo sotadigan davlat emas, yuqori texnologiyalar yaratadigan mamlakatga aylanmoqda. Jahonning texnologik rivojlangan davlatlari qatoriga kirishimiz, fazoga birinchi o‘zbek kosmonavtini uchirish rejasini o‘z-o‘zidan ro‘y berayotgan voqea emas, yangi O‘zbekiston taqdirida yuz berayotgan ijtimoiy transformatsiya jarayoni ifodasidir.

Ta‘lim tizimidagi islohotlar mohiyati yangi maktablar, oliyog‘ohlar, o‘quv binolari qurilishi

yoki yoshlarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratilishida ham emas, millat genofondini yangilash, intellektual qiyofasini tubdan o‘zgartirishda namoyon bo‘lmoqda. Demak, ilm-fan kelajagimiz egalarining cheksiz energiyasi va ertasi ekan, tomirimizdagi qon kabi ongimizda, shuurimizda mavj urmog‘i, yurakday gupillab ishlamog‘i, olayotgan har bir nafasimiz misoli yangilanmog‘i zarur. Shu bois, Murojaatnomada ta‘lim masalasiga alohida urg‘u berilgan. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, biz bugun 38 million nufusli ulkan xalqimiz va eng katta boyligimiz oltin yoki neft emas, balki inson kapitalidir. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar shu kapital o‘sib borishi uchun qo‘yilayotgan katta sarmoya, desak ayni haqiqat.

O‘tgan yili oliyog‘ohlarda ta‘lim olayotgan talabalar soni 1,7 milliondan oshib, abituriyentlarga qo‘shimcha yana 5 ta ta‘lim yo‘nalishini tanlash imkoniyati yaratildi. Dunyoning yetakchi 1000 universiteti qatoriga kirgan oliyog‘ohlarimiz soni 3 taga yetdi. UNESCOning Oliy ta‘limga oid malakalarni tan olish to‘g‘risidagi global konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Bu esa milliy kadrlarning 30 dan ortiq mamlakat mehnat bozoriga diplomlari bilan bemalol kira olishini ta‘minlaydi. Shuningdek, nufuzli OTMlarning 500 taligi ro‘yxatiga kirgan universitetlar bilan hamkorlikda 17 ta qo‘shma ta‘lim dasturi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Jizzax politexnika institutining Vengriyaning Obuda universiteti boshqaruviiga berilishi hamda Yaponiyaning Sukuba milliy universiteti bilan birga yangi OTM tashkil etilishi o‘qitish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishda ilk tajriba bo‘ladi. Aniq fanlar va texnika yo‘nalishida ta‘lim beriladigan boshqa oliyog‘ohlarga ham eng nufuzli universitetlar jalb qilinadi.

Shu qizg‘in jarayonda 4000 dan ortiq professor-o‘qituvchimiz xorijga malaka oshirish va stajirovka uchun yuborildi. O‘z



navbatida, chet ellik 2500 mutaxassis milliy ta‘lim jarayoniga jalb etildi. 72 talabamiz xalqaro fan olimpiadalarida yuqori o‘rinlarni egalladi.

Mamlakatimizda ilmiy innovatsiyalar taraqqiy etib borayotgani ilmiy tadqiqotlar ko‘lamida ham aks etmoqda. Xususan, 2025-yilda 5000 dan ortiq dissertatsiya himoyasi o‘tkazilib, ilmiy darajali pedagoglar ulushi 50 foizga yetdi. Ilmiy loyihalarga ajratilgan mablag‘ esa keyingi 8 yilda 2,5 barobar oshirildi.

Bu o‘zgarishlar tufayli O‘zbekiston mamlakatlar innovatsion rivojlanish tendensiyasini belgilab beradigan “Global innovatsion indeks” reytingida 79-o‘rinni egalladi. Hududlardagi yoshlar texnoparklari soni 13 taga yetkazilib, ularga 15-30 yoshli 70 mingdan ortiq innovator qamrab olindi. Natijada 2000 yosh muhandisi 25 daqiqada 1946 ta robot yasab, tarixiy natijani qayd etdi. Shuningdek, bu yil “Kelajak muhandislar” xalqaro festivali doirasida Toshkent shahrida ilk bor SHHTga a‘zo davlatlar yoshlari o‘rtasida muhandislik yo‘nalishida xalqaro olimpiada o‘tkaziladi. “Raqamli startaplar” dasturi kengaytirilib, startap g‘oyasidan eksportgacha ko‘maklashadigan yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, Markaziy bankda Fintex ofisi va Innovation xab tashkil etilib, unga Singapurdan mutaxassislar jalb qilinadi. Natijada yiliga 15-20 ta fintex startapni tashqi bozorga olib chiqish, ularga jami 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor sun‘iy yo‘ldoshimizni uchirish va birinchi o‘zbek kosmonavtini fazoga yo‘llash bo‘yicha ishlarning boshlanishi ta‘lim va ilm-fan parvozi pallasi yaqinlashib kelayotganidan dalolat. Bu faqat texnologik yutuq emas, mamlakat yoshlariga bildirilgan ishonch hamdir. Bunga qanday erishiladi? Albatta, shu ilming egalari bo‘lgan, yetuk kadrlar — yoshlar shijoati bilan. Buning uchun esa navqiron avlod vakillariga barcha sharoit va qulaylik yaratib berilmoqda.



Tarbiya poydevori



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Habib ABDIYEV,
Maktabgacha ta‘lim
tashkilotlari direktor va
mutaxassislari qayta
tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti
prorektori

Ta‘lim tizimidagi islohotlar bugun dolzarb pallaga kirdi va yangi O‘zbekiston yo‘lining yorqin mezonlaridan biriga aylandi. 2017-yilda mamlakatimizda 5211 ta bog‘cha faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugun ularning soni 19 ming 316 taga yetdi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy bog‘chalar tashkil etilishi va bu sohaga ko‘plab intiyozlar berilishi tufayli 13 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori sohani yanada yuksaltirishda muhim dasturlam vazifasini bajarmoqda. Mazkur hujjatda ta‘kidlanganidek, maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish va bosqichma-bosqich izchil rivojlantirishdan maqsad bolalarni maktabga sifatli tayyorlash, eng muhimi, sohadagi islohotlarni keng qamrab olib, ustuvor natijalarga erishishdir. Bu borada Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi qilayotgan ishlar ko‘lami nihoyatda keng. Yosh avlodni yangi O‘zbekistonning munosib, fidoyi farzandlari qilib tarbiyalash o‘qituvchilar hamda tarbiyachilarning sharafli vazifasidir.

O‘tgan yil 15-may kuni mamlakatimiz yetakchisi rahbarligidagi maktab ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda ta‘kidlanganidek, so‘nggi yetti yilda maktabgacha va maktab ta‘limi uchun mablag‘ yetti barobar oshirilgan.

“

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 3-7 yoshli bolalar orasida sog‘lom turmush tarzi, xavfsiz hayot, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati asoslarini shakllantirish maqsadida “Salomatlik alifbosi” dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga keng joriy etilmoqda.

2025-yilda islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida sohaga 60 trillion so‘m ajratilib, maktablardagi o‘quv va tarbiya o‘rinlari bir millonga, bog‘chalarda esa 1,5 millonga yaqinlashdi. Joriy yildan boshlab maktab direktorlari, o‘rinbosarlari bilan bir qatorda bog‘cha rahbarlarining ham ish haqi oshirildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 38 ming 900 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarga qiziqarli o‘yinlar asosida berilayotgan saboqlar ilm dunyosining yangi-yangi eshiklarini ochmoqda. Masalan, maktabgacha ta‘limni kengaytirish va bolalarni innovatsion usullar bilan o‘qitishga asoslangan “Aqlvoy” ijtimoiy loyihasini tahlil qilib ko‘raylik. Uning doirasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari yetishmaydigan hududlarda bolajonlarga quvonch hadya etish maqsadida mobil bog‘cha xizmati yo‘lga qo‘yildi.

Bugun 102 ta avtobus 216 ta mahallaga borib, 9500 o‘g‘il-qizni bilimlarning sirli va mo‘jizaviy olami sari yetaklayotgani quvonarli voqea, albatta. Bu tashabbus malaka oshirish hamda bilimning ilk poydevorini qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etib, mobil avtobuslar orqali boshlang‘ich ta‘limning dastlabki saboqlarini o‘qitishda tarbiyachilar uchun ishonchli tayanch va samarali yordamchi bo‘lishiga hech shubha yo‘q.

Shuningdek, 50 ta “Ilk rivojlanish markazi” 5200 kichikintoyning hayotida yangi sahifa ochib, ularning tafakkurini yangi bilim va tushunchalar bilan boyitib bormoqda. “Ilk qadam” davlat ta‘lim dasturi UNICEF, Singapur,

Buyuk Britaniya oliy o‘quv yurtlari, xususan, Kembrij universiteti tajribasi asosida yanada takomillashtirildi.

1746 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida “Turon kichikintoylari” teatr jamoalari tashkil etildi. Ular bolalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, fikrlash qobiliyatini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish, kichik, bolalarbop sahna asarlarini namoyish etishda katta imkoniyatlar eishigini ochadi.

Hozir kattayu kichikda ekologik tushuncha va madaniyatni shakllantirish dolzarb masala bo‘lib turibdi. Ushbu kechiktirib bo‘lmas vazifani amalga oshirish maqsadida 3385 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida “ekologik yo‘lakcha” va “ekologik burchak”lar tashkil etilgan va tabiiy asrab-avaylash haqida saboqlar berilayotganini e‘tib etish mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 3-7 yoshli bolalar orasida sog‘lom turmush tarzi, xavfsiz hayot, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati asoslarini shakllantirish maqsadida “Salomatlik alifbosi” dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Bugun “Yangi avlod” bog‘chalarini tashkil etishga jadal kirishildi. Ular davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti bo‘lib, ilg‘or xorijiy tajriba asosida turfa aqliy o‘yinlarga asoslangan ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Kelajakda “Yangi avlod” bog‘chalari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida tarbiyachi-pedagoglar va soha mutaxassislari uchun maxsus qo‘llanmalar hamda “Yangi avlod” ensiklopediyasi fundamental ilmiy-ommabop nashri ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz o‘tgan yili O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida “Hamмамizga ayonki, kelajak — zamonaviy bilim bilan qurollangan kasb-hunar egalarinikidir. Biz bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim. Shu bois, yoshlarimizni davr bilan hamnafas bo‘lib, har qanday raqobatga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassislar etib tarbiyalashimiz kerak”, deya alohida ta‘kidlagan edi.

Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv o‘qituvchi va murabbiylarning faoliyati mezoniga aylandi. Chindan ham biz ta‘limni o‘zgartirish, ta‘lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa, butun jamiyat o‘zgaradi.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, maktabgacha ta‘lim va umuman, o‘qitish tizimidagi izchil islohotlar natijasi o‘laroq, O‘zbekistonda Uchinchi Renessansga mustahkam poydevor qo‘yiladi.

Shuningdek, yosh toifalari bo‘yicha milliy tarbiya modeli yaratiladi. Bolalar zamonaviy kompetensiyaga ega mutaxassis, milliy qadriyatlarga sodiq inson etib tarbiyalanadi.



Islomiddin ABROROV,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa
doktori

Bugungi globallashuv va tobora avj olayotgan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishi uchun yuqori malakali, zamonaviy kasb va kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlashga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida kasblarni rivojlantirish hamda yangi mehnat

“

“Mening kelajakdagi kasbim” dasturiga muvofiq maktab maslahatchilari 7-9-sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishi, qobiliyati va iqtidorini aniqlab, akademik ta‘lim yoki kasb-hunarga yo‘naltiradi.

QIZIQISHDAN HUNARGACHA

bozori arxitekturasini yaratish joriy yilning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangani bejiz emas. Chunki yaqin besh yilda kasblarning 30 foizi to‘liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo‘yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Shu bois, kasbiy ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, mazmunini va tuzilmasini yangilashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda xalqaro standart va ilg‘or tajribalar inobatga olinaypti.

Prezidentimizning 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta‘lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida kasbiy ta‘lim tizimini 2030-yilga qadar isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xususan, xalqaro va qo‘shma ta‘lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini kamida 250 taga, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta‘limga qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga, dual

ta‘lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga, kasbiy sertifikatga ega ishlab chiqarish ta‘limi ustalari ulushini 30 foizga, xorijda malaka oshirish va stajirovka o‘tash dasturlarida ishtirok etgan pedagoglar sonini 100 nafardan 2500 nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, kasbiy ta‘limni ommalashtirish maqsadida 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tartibi yo‘lga qo‘yiladi. “Atrofimizdagi kasblar” dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 5 yoshdan boshlab bolalar o‘yinlar orqali turli kasblar haqida ilk tasavvur shakllantiriladi. “Kasblar alifbosi” dasturi asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-4-sinf o‘quvchilariga turli kasblarning ahamiyati haqida tushuncha beriladi. “Kasblar olami” dasturi asosida 5-6-sinf o‘quvchilarining kasbiy faoliyat va mehnat sohalariga qiziqishi rivojlantiriladi.

Shu bilan birga, “Mening kelajakdagi kasbim”



Kasbiy ta‘lim



dasturiga muvofiq maktab maslahatchilari 7-9-sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishi, qobiliyati va iqtidorini aniqlab, akademik ta‘lim yoki kasb-hunarga yo‘naltiradi. O‘quvchilarning

qiziqishiga oid ma‘lumotlar asosida shaxsiy tavsiya ishlab chiqiladi hamda ota-onalar bilan muhokama qilinadi. 2028-yildan boshlab texnikumga yo‘naltirish 9-sinf yakuni bo‘yicha

o‘tkaziladigan imtihon natijasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

“

O‘zbekiston global raqobat, texnologik inqilob va murakkab geosiyosiy jarayonlar davrida xalqaro maydonda nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida yosh avlodning intellektual salohiyatini har tomonlama yuksaltirishga jiddiy e‘tibor qaratmoqda. Shu ma’noda, mehnat bozori tahliliga asoslangan kasblar klassifikatorini muntazam yangilab borish, ta‘lim muassasalari, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, kasbiy ta‘lim, avvalo, malakali kadrlar bilan ta‘minlashda qo‘l keladi.

Har bir insonning qalbida, eng avvalo, o'z vataniga bo'lgan cheksiz muhabbat va hurmat mavjud. Bu hislar nafaqat tarixiy merosni, balki kelajakka bo'lgan mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi.

14-YANVAR – Vatan himoyachilari kuni

Burgutlar bilan

bo'ylashib

O'ZBEKISTON – OTAJON, O'ZBEKISTON – ONAJON

Uch ming yillik mashhaqqat, yo'ldan yurib keldik,
Uch ming yillik quvonchni, g'amni ham ko'rib keldik,
Uch ming yillik nasiba — rizq-ro'zni terib keldik,
Birlashib, bir xalq bo'lib, biz Vatan qurib keldik.
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

Tinch turganni hayvondek sugzanni ko'rgan dunyo,
Ming yillik rishtalarni uzganni ko'rgan dunyo,
Muqaddas rabotlarni buzganni ko'rgan dunyo,
Pahlavon turkiy ulus tuzganni ko'rgan dunyo,
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

Vatan qondir, Vatan — jon, pokiza iymon — Vatan,
Aziz bobolarimdan meros burch-vijdon — Vatan,
Muqaddas ona tuproq, musaffo osmon — Vatan,
Shaksiz, xalq va armiya — bir tan-u bir jon — Vatan,
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

Azaldan, ey ona yurt, asl o'g'lonlaring bor,
Jasur, qo'rqmas, dovyurak qizlaring — jonlaring bor,
Sarhadlaringda doim sergak posbonlaring bor,
Alpomishday, Barchinday mard-u maydonlaring bor,
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

Osmonda porlar oftob — boshda oltin chambarak,
Ilmu tafakkur bilan munavvardir kelajak,
Qay joyda inson qadri bo'lsa aziz, muborak,
Xalqlar farovon yashar, yuksalgay Vatan beshak,
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

Yuksakda hilpiraydi bayrog'ing — so'nmas shoning,
Jondan qimmat istiqlo'l — Tangrim bergan imkonning.
Metindayin bardoshing, olmosdayin iymoning,
Vatan va xalqni o'ylar Oliy Bosh Qo'mondoning.
O'zbekiston — otajon, burgut bo'lgan, sor bo'lgan,
O'zbekiston — onajon, O'zbekiston, bor bo'lgan.

G'ayrat MAJID



Bunyod MIRZAYEV,
Sharqiy harbiy okrug "Sharq"
desantchilar tayyorlash bazasida
ta'minot guruhi komandiri,
III darajali serjant

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda desantchilar faoliyatida ham katta o'zgarishlar ro'y bermog'da. Zamonaviy parashyut tizimlari, mashqlarning yangi usul va uslublari amaliyotga joriy qilinmoqda. 2015-yildan buyon katta yo'riqchi lavozimida xizmat qilaman. Safimizga qo'shilgan yosh harbiy xizmatchilarni sakrashgacha bo'lgan yer mashg'ulotlaridan o'tkazib, amaliyotga tayyorlaymiz. Dastur mashg'ulotlari tugaganidan keyin ularga parashyutchi-desantchi sertifikatini beriladi. Bunda, avvalo, nomzodning vazni me'yorda bo'lishi va u belgilangan talablarga javob berishi lozim. Parashyut bilan sakrash uchun odamning bo'yi 150 santimetr, vazni esa 50 kilodan kam bo'lmasligi kerak.

2018-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev harbiy qisminimizga tashrif buyurganida, yoshlarning desantchi bo'lishga va parashyut bilan sakrashga qiziqishi yuqori ekanini ma'lum qildim. Shundan so'ng davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari bilan Sharqiy harbiy okrug "Sharq" desantchilar tayyorlash

bazasida "Sharq burgutlari" jamoasi tuzildi. Hozirgi kunda bu guruhda 11 nafar a'zo bo'lib, ularning 4 nafari qizlar, 7 nafari esa o'g'il bolalardir.

Mashg'ulotlardagi harakatlar va intilishlarni kuzatib, bolaligim yodimga tushadi. Bu sohani o'rganish va kasbni egallash uchun quruq qiziqishning o'zi kamlik qiladi, tinimsiz mehnat qilish, ruhan chidamlilik, bilim va hozirjavoblik katta ahamiyatga ega. Esimda, ilgari bitta parashyut uchun ikki kishi navbat kutardik. Bugun esa har bir bolaga, shug'ullanuvchiga alohida parashyut ajratilgan, sharoitlar ham shunga yarasha, hamma narsa badastir. Qirg besh soatlik tayyorgarlik darslarimiz mavjud. Jamoamiz a'zolari yosh bo'lishiga qaramay, yaxshi natijalar ko'rsatyapti. Qizlarning ko'rsatkichlari ham yomon emas.

Bazamiz faoliyati haqida gapiradigan bo'lsam, safimizga yangi qo'shilganlar uchun 21 soatlik o'quv kursimiz bor. Yakkta tartibdagi suhbat va o'rganishlar, ruhiy tayyorgarlik hamda boshqa bir qancha mashg'ulotlar davomida ularni amaliy sakrashga tayyorlaymiz. Shundan keyin sakrash mashqlari bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Avval 600 metr, keyin 800, 1000 va hatto 2000 metrgacha balandlikdan sakrashlar o'tkaziladi. Izlanish va intilishlarimiz besamar ketmayapti. Rossiya va Jazoirda o'tkazilgan Xalqaro armiya o'yinlarida sovrindorlar qatoridan joy oldik.

“

Yangiliklar va yangi usullarni, avvalo, biz — yo'riqchilar sinovdan o'tkazamiz. Har qanday yangilik har tomonlama tekshiruvlar va xavfsizlik talablari hisobga olinib, tasdiqdan o'tganidan keyingina shaxsiy tarkib amaliyotiga joriy qilinadi.

“

Harbiymiz, kiygan libosimizga munosib bo'lishimiz kerak. Men jismoniy qo'rquvni his qilmayman. Ammo yelkamizda parashyut hamda qurol bilan birga mas'uliyat va burch ham bor. Shuni his qilish va mardona ko'tara olish kerak. Ishonchni oqlay olmaslik — yomon...

Vatanimizning Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilgan katta tadbirga 110 kilogramm og'irlikdagi yuk bilan sakraganman. Ammo bu og'irlikdan zararcha cho'chimadim, u sakrashimga ham salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Bilasizmi, bu qanday yuk edi? Bu davlatimizning

HAR-BIRIMIZ YURT POSBONIMIZ

Vatan bu — faqat xaritada belgilangan hudud emas, u — ona allasi bilan quloqqa singgan ohang, bolalik xotiralari yashiringan ko'hna ko'chalar, bobolar duosi bilan ardoqlangan tuproqdir. Inson vatanini sevadi. Goh onadek mehribon, goh singildek beg'ubor, goh esa or-nomusdek muqaddas deb biladi. Vatan qalbida yashaydi. Uni so'z bilan ta'riflash qiyin, ammo himoya qilish barchamiz uchun sharaflı burchdir.

Bahodirjon
SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti
rektori, professor

Bugun tinch osmon ostida yashar ekanimiz, bu osoyishtalik o'z-o'zidan kelmagani anglashimiz zarur. Har bir tinch tong, har bir xotirjam tun ortida fidoyilik, jasorat va mas'uliyat mujassam. Vatan himoyasi faqat qurol tutgan qo'llar bilan emas, balki hushyor tafakkur, pok niyat va sadoqat bilan amalga oshadi. Shuning uchun ham "Vatan himoyasi — har birimizning vijdoniy mas'uliyatimiz" degan tushuncha bugungi kun ruhiga ayni mos keladi.

Ana shunday yuksak g'oya va maqsadlar asosida mamlakatimiz bo'ylab 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 15-yanvargacha qadar "Milliy armiya — ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni" shiori ostida "Vatanparvarlik oyligi"

tadbirlari o'tkazilmoqda. Bunday targ'ibot tadbirlarida Qurolli kuchlarimiz, harbiylar, xususan, Farg'ona davlat universiteti jamoasi, uning harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchi va talabalari faol ishtirok etmoqda.

Har bir insonning qalbida, eng avvalo, o'z vataniga bo'lgan cheksiz muhabbat va hurmat mavjud. Bu hislar nafaqat tarixiy merosni, balki kelajakka bo'lgan mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Vatan himoyasi faqatgina armiya yoki harbiy tashkilotlar ishi deb o'ylash noto'g'ri. Aksincha, vatan himoyasiga har birimiz mas'ulmiz. Bugun dunyoda, iqtisodiy, siyosiy va axborot sohalarida keng tarqalgan tahdidlarga qarshi birlashish va birgalikda kurashish hayotiy zarurat.

Vatan himoyasi birgina harbiy janglarda ishtirok etish bilan cheklanmaydi. Har bir fuqaro o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida qiladigan ishlari orqali ham vatan himoyasiga hissa qo'shishi kerak. Yaxshi pedagoglar, olimlar, shifokorlar va boshqa mutaxassislar ham o'z mehnatlari



G'urur

bilan vataniga xizmat qiladi. Ularning faoliyati xalqni tarbiyalash, bilim berish, sog'liqni saqlash va jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan. Demak, har bir insonning o'z sohasidagi mas'uliyati va fidoyiligi vatan himoyasining ajralmas qismi sanaladi.

Iqtisodiy mustaqillik ham Vatan himoyasining poydevori. Agar davlat iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lmasa, unga

tashqi kuchlar tomonidan tahdidlar xavfi mavjud bo'ladi. Shu bois, iqtisodiy rivojlanish va o'z resurslarimizdan samarali foydalanish har bir fuqaroning mas'uliyati hisoblanadi. Xaridlarimiz, ishimiz, ishlab chiqarishimiz va iste'molimiz milliy iqtisodiyotimizni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga

Murojaatnomasida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar buning yorqin namunasidir. Jumladan, 2025-yilda yalpi ichki mahsulot 145 milliard dollardan oshdi. Joriy yilda eksport 20 foizga oshirilib, 33,4 milliard dollarga yetkaziladi, oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 60 milliard dollardan ortadi. Bu yutuqlar nafaqat rivojlanishni, balki Vatan himoyasining iqtisodiy poydevorini

mustahkamlashni ko'rsatadi, chunki mustaqil iqtisodiyot tashqi tahdidlarga qarshi eng kuchli qalqon. Vatan himoyasining yana bir muhim sohasi — axborot va ma'naviyat himoyasi. Hozirgi kunda axborot urushi dunyoning turli burchaklarida davom etmoqda. Yangi texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali noto'g'ri, manipulyatsion va xatoliklar bilan to'la axborotlar tarqatilmoqda. Bu axborotlar faqat davlatlar orasidagi munosabatlarni buzish bilan cheklanmaydi, balki odamlar orasida o'zaro ishonchsizlik, nafrat va hasadni keltirib chiqaradi. Shuning uchun har bir fuqaroning mas'uliyati to'g'ri, haqqoniy axborotlar tarqatish va yolg'onlarga qarshi turishdir.

Vatan himoyasi nafaqat hududiy, balki ma'naviy va madaniy jihatdan ham amalga oshiriladi. Qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, tilimiz va milliy an'analarga bo'lgan hurmatimiz vatan himoyasining mustahkam poydevori. Agar biz o'z madaniy merosimizni unutib, unga nisbatan befarq bo'lsak, bu nafaqat kelajagimizni xavf ostiga qo'yadi, balki xalqimizning ruhiy barqarorligini ham buzadi. Shuning uchun har birimiz tilimizni, tariximizni, milliy qadriyatlarimizni saqlashga, yosh avlodga o'rgatishga mas'uliyatli yondashishimiz zarur. Bularning bari mamlakatimiz mustahkamligini ta'minlaydi. Vatan himoyasi nafaqat jangovar harakatlarni, balki ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va axborot sohalarida olib borilayotgan harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Zero, har bir fuqaro el-yurt oldidagi o'rmini chuqur anglab, jamiyatga hissa qo'shmoq o'liy sharaftir.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyyat kompyuter markazida sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy